

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik mexanizmini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strategiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeiini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 338.1(575.1):347.91

**O'ZBEKISTON SSRDA 1960–1980-YILLARDA QISHLOQ XO'JALIGI BOSHQARUVIDA
BYUROKRATIK MUAMMOLAR VA DAVLAT MULKINI TALON-TAROJ QILISH HOLATLARI****БЮРОКРАТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И СЛУЧАИ ХИЩЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
СОБСТВЕННОСТИ В УПРАВЛЕНИИ СЕЛЬСКИМ ХОЗЯЙСТВОМ УЗБЕКСКОЙ ССР В 1960–
1980-Е ГОДЫ****BUREAUCRATIC PROBLEMS AND CASES OF EMBEZZLEMENT OF STATE
PROPERTY IN THE MANAGEMENT OF AGRICULTURE IN THE UZBEK SSR DURING 1960–
1980****Aslonov Islombek Soyibjon o'g'li** 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada 1960–1980 yillarda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasida qishloq xo'jaligini boshqarish tizimining holati va muammolari tahlil qilinadi. Sovet davriga xos bo'lgan qat'iy markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv apparatining qishloq xo'jaligi sohasiga ta'siri tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Xo'jaliklarning iqtisodiy mustaqilligining cheklanishi, byurokratik to'siqlar va yuqoridan berilgan rejalarni bajarishdagi sun'iylik kabi omillar o'rganiladi. Shuningdek, ortiqcha markazlashuv va nazoratning samarasizligi natijasida yuzaga kelgan korruptsiya, davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari ham tahlil qilinadi. Maqola arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va tarixiy tahlillar asosida mazkur davr boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ochib beradi.

Аннотация

В данной статье анализируется состояние и проблемы системы управления сельским хозяйством в Узбекской Советской Социалистической Республике в 1960–1980-е годы. На основе исторических источников рассматривается влияние характерного для советского периода строго централизованного и командно-административного аппарата на аграрный сектор. Изучаются такие факторы, как ограничение экономической самостоятельности хозяйств, бюрократические препятствия и искусственность выполнения плановых показателей, спускаемых сверху. Также анализируются случаи коррупции и хищения государственной собственности, возникшие в результате чрезмерной централизации и неэффективного контроля. Статья, опираясь на архивные документы, статистические данные и исторический анализ, раскрывает экономические и социальные последствия управленческих механизмов данного периода.

Abstract

This article analyzes the state and problems of the agricultural management system in the Uzbek Soviet Socialist Republic during the 1960–1980s. The impact of the strictly centralized and command-based administrative apparatus, typical of the Soviet period, on the agricultural sector is examined through historical sources. Factors such as the restriction of economic independence of farms, bureaucratic obstacles, and the artificial fulfillment of centrally assigned plans are explored. The article also analyzes cases of corruption and embezzlement of state property that emerged as a result of excessive centralization and ineffective control. Based on archival documents, statistical data, and historical analysis, the paper reveals the economic and social consequences of the governance mechanisms of that period.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, kolhoz va sovxoz, talon-taroj, qishloq xo'jaligi, davlat mulki, mansabdorlar,**Ключевые слова:** Узбекская ССР, колхоз и совхоз, хищение, сельское хозяйство, государственная собственность, должностные лица.**Key words:** Uzbek SSR, kolkhoz and sovkhoz, embezzlement, agriculture, state property, officials.**KIRISH**

1960–1980 yillar O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining qishloq xo'jaligi boshqaruvida murakkab va ziddiyatli davr bo'ldi. Bu davrga kelib Sovet Ittifoqida qishloq xo'jaligini boshqarish tizimi yuqoridan pastgacha qat'iy markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan byurokratik apparat tusini olgan edi. Ushbu maqolada aynan shu yillarda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi tizimidagi boshqaruv muammolari, ortiqcha byurokratizm oqibatlarini, xo'jaliklarning mustaqilligi cheklangani va davlat mulkini talon-taroj qilish (korruptsiya) holatlari tarixiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Maqsad – arxiv hujjatlari va statistik dalillarga tayangan holda yuqoridan beriladigan

TARIX

rejalar amalda qanday bajarilgani, boshqaruv mexanizmlari samarasizligi nimalarga olib kelgani va bu omillar qanday suiiste'mollarga zamin yaratganini yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlariga oid manbalar kompleks ravishda o'rganildi. Asosan, O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi va boshqa hududiy arxiv fondlaridan olingan hujjatlar tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarda e'lon qilingan tadqiqotlar va davr mutaxassislarining asarlariga tayanildi. Tadqiqot davomida tarixiy taqqoslash, tahliliy va tavsifiy usullar qo'llanilib, O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi tizimidagi boshqaruv muammolari, ortiqcha byurokratizm oqibatlari, xo'jaliklarning mustaqilligi cheklangani va davlat mulkini talon-taroj qilish (korruptsiya) holatlari tarixiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tarixiy kontekst va boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar. Stalin vafotidan so'ng (1953) boshlangan nisbiy "eritish" davri qishloq xo'jaligida ham ayrim yumshatishlarga sabab bo'ldi. Nikita Xrushchov davrida boshqaruvda ba'zi eksperimentlar qilinib, muddatli hududiy tizimlar joriy etildi ("sovnarxo'z"lar tashkil etilishi kabi). Ammo 1965-yil sentabridagi KPSS Markaziy Qo'mitasi plenumidan so'ng Leonid Brejnev rahbariyati markazlashgan rejalashtirish va tarmoqlar bo'yicha vertikal boshqaruvni yana tikladi. 1965-yilgi iqtisodiy islohotlar ba'zi tahlilchilarga ko'ra sanoatda "oltin davr"ni boshlab bergan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligida tizimning negizlari o'zgarmadi – kolxozlar va sovxozlar hanuz yuqoridan beriladigan davlat rejalarining ijrochisi bo'lib qoldi.

1960-yillarning oxirlarida qishloq xo'jaligini boshqarish tizimini "takomillashtirish"ga qaratilgan urinishlar ham bo'ldi. butunittifoq kolxozchilarning III se'zdi bo'lib o'tdi, unda kolxozlarning Nizomi qabul qilindi. Seyezddan so'ng 1970-yilda kolxoz ishlab chiqarishini boshqaradigan kolxoz kengashlari qaytadan tashkil etilib, ularning faoliyati 1971-yilda hukumat tomonidan qabul qilingan kolxozlar kasaba uyushma Kengashi to'g'risidagi Nizom va Ittifoq va avtonom respublikalar, hududlar, viloyatlar va tumanlar kolxozlari kengashlari to'g'risidagi namunaviy Nizomga asoslandi. Amalda ular faqat maslahat funksiyalarini bajardi. Kolxozlar kasaba uyushma Kengashini SSSR qishloq xo'jaligi vaziri, respublika Kengashini respublika qishloq xo'jaligi ministri, viloyat va tuman kengashlarini tegishli darajadagi qishloq xo'jaligi bo'limlari rahbarlari boshqardi[1]. Joylarda kolxozlar va sovxozlar faoliyatini boshqarib, qo'yi darajagacha ta'sir o'tkaza boshladi. Rasmiy qararlarda bu kengashlar kolxozning o'zini o'zi boshqarishida muhim rol o'ynashi aytilgan bo'lsa-da, amaliyotda ular faqat maslahat beruvchi organgina bo'lib qoldi. Ya'ni, qog'ozda kolxozlarning "o'zini o'zi boshqarishi" joriy etilgandek bo'lsa-da, aslida haqiqiy hokimiyat partiya qo'mitasi va hukumat vakillarining qo'lida qolaverdi.

1970-yillarga kelib qishloq xo'jaligida markaziy partiya apparatining xo'jalik ishlariga aralashuvi misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Har bir kolxoz va sovxoz o'z kundalik faoliyati bo'yicha ham yuqori tashkilotlardan ko'rsatma olishga majbur edi. Misol uchun, 1979-yilning o'zida SSSR Qishloq xo'jalik vazirligi yuqoridan 178,6 ming turli topshiriqlar belgilangan qaror va farmoyishlar oldi. Bu tabiiyki ittifoqdosh respublikalarga ham tarqatildi. 1980-yilga kelib kolxoz va sovxozlar "yuqoridan" kuniga 6-7 ta topshiriq va farmoyishlar oldi[2]. Aksariyat xo'jalik rahbarlari yuqoridan beriladigan topshiriqlarni ko'r - ko'rona bajaruvchiga, ijrochi kishilarga aylanib qoldilar. Xo'jalik rahbarlari hatto g'o'zani chopiq qilish, sug'orish, terish kabi oddiy ishlarda ham yuqori partiya tashkilotlaridan topshiriq olmasdan turib ishni boshlay olmas edilar.

Yuqoridan pastgacha qat'iy buyruqbozlikning oqibatlari 1970-yillarning oxirlariga borib yaqqol sezila boshladi. Ko'plab kolxoz va sovxozlarning iqtisodiy ahvoli yomonlashib, rentabellik tushib ketdi. Rasmiy hisobotlarda qog'ozda rejalar bajarilayotgani ko'rsatilgan bo'lsa-da, asl ishlab chiqarish samaradorligi pasaya borardi. Majburiy reja quvishlar ortidan hisobotlarda qo'shib yozishlar (soxta statistik ko'rsatkichlar) epidemiyasi avj oldi. Boshqacha aytganda, qishloq xo'jaligidagi inqiroz belgilari yuqoriga noto'g'ri ma'lumotlar bilan yopilib kelinavergan, bu esa 1980-yillarga kelib butun Sovet qishloq xo'jaligini chuqur tizim inqiroziga olib chiqdi.

Davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari. Yuqorida ta'kidlangan boshqaruvdagi illatlar va xo'jaliklarning iqtisodiy mustaqillikka ega emasligi holati qishloq xo'jaligida keng ko'lamli suiiste'molliklar va korruptsiya uchun qulay "zamin" yaratdi. Davlat mulki va resurslarining talon-taroj qilinishi nafaqat O'zbekiston SSR, balki butun Sovet Ittifoqi miqyosida jiddiy muammoga aylangandi[1]. Xususan, O'zbekiston SSR misolida – ayniqsa paxtachilik sohasida – bunday

noqonuniy holatlar o'ta keng tarqaldi. Sovet hukumati bu muammolarni jilovlash uchun bir necha bor harakat qilgan. Masalan, 1968-yil 27-martda "Sosialistik mulkni asrash, kamomad va talon-taroj qilishning oldini olishni ta'minlashda partiya tashkilotlari ishini yanada takomillashtirish haqida"gi, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1969-yil 29-may "Sosialistik mulkni asrashning qo'shimcha chora-tadbirlari haqida"gi, 1970-yil 27-noyabr "Kolxozlarda moddiy mablag'dan foydalanish va qimmatbaho materiallarni saqlashdagi jiddiy kamchiliklar haqida"gi qarorlar chiqdi [3]. Kolxozlarda mulkdan foydalanishdagi kamchiliklar va o'g'rilikning oldini olish choralari bag'ishlangan hujjatlar e'lon qilindi. Afsuski, bu normativ hujjatlar real hayotda kutilgan samarani bermadi – davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari kamayish o'rniga tobora ko'payib bordi.

Korrupsiya va o'g'riliklarning eng keng tarqalgan maskanlaridan biri kolxoz va sovxozlarning yordamchi xo'jaliklari edi. Rasmiy ruxsatga ko'ra, bunday yordamchi ishlab chiqarish sexlari ortiqcha xomashyo yoki chiqindilarni qayta ishlash, xo'jalik ehtiyojlari uchun qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish maqsadida tashkil etilardi. Ammo aynan shu bo'linmalar ko'pincha turli firibgarlik va o'g'rilik sxemalarining uyasiga aylangan edi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1980-yillar boshlarida O'zbekiston SSR kolxoz-sovxozlarida jami 4389 ta yordamchi xo'jalik faoliyat yuritgan bo'lib, ularning ixtisoslashuvi ham turlicha edi (69 tasi g'isht zavodi, 5 tasi vino zavodi, 9 tasi sabzavot konservalash sexi, 3 tasi meva sharbatlari, 10 tasi olma bo'tqasi ishlab chiqarish sexi, 7 tasi keramika-fayans buyumlari, 2 tasi konserva zavodi va hokazo). Aslida bunday yordamchi xo'jaliklar qishloq joylarda kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun foydali bo'lishi kerak edi, biroq ko'pchilik hollarda ular davlat mulkini o'zlashtirish va noqonuniy daromad olish manbaiga aylangan.

Daromadni yashirish va buxgalteriya hiylalari: Bunday sexlar faoliyatida katta daromadlar olinib, ularni yashirish uchun turli buxgalteriya hiylalari qo'llangan. Jumladan, yollanma ishchilarga rasmiy maoshni sun'iy ravishda oshirib yozish, ularga go'yoki "mukofot" va "safari puli" to'langan qilib hujjatlashtirish holatlari bo'lgan[20]. Nazorat sust bo'lgani bois, ba'zi tashkilotchilar o'zlariga o'zlari haddan tashqari yuqori ish haqi belgilab, shu yo'l bilan foydani o'zlashtirganlar. Hisobotlarda esa bu mablag'lar aslida "uchinchi shaxslarga" to'langan qilib ko'rsatilgan. Bu ishlarga kolxoz va sovxozlarning rahbarlari ham tortilgan. Masalan, Gorkiy oblastining Chkalov rayoni "Kommunizmga yo'l" nomli kolxozni ta'minlash bo'limi boshlig'i bo'lib, Moskva fuqarosi to'rt marotaba sudlangan Dinilin ishlagan. Uning maoshi 180 rubl va mehnat safari uchun 150 rubl maosh olgan.[4]

1982-yilda KPSS Markaziy Qo'mitasining may plenumida qishloq xo'jaligida intizomni mustahkamlash va hosildorlikni oshirish bo'yicha qat'iy choralar belgilansa-da, amalda sustkashlik va suiiste'mollar davom etdi. Xuddi o'sha 1982-yilning o'zida Sovet Ittifoqi Ichki ishlar vazirligi organlari tomonidan kolxoz va sovxozlarda juda katta o'g'riliklar sodir bo'lgani aniqlandi. Xususan, Bryansk, Vladimir, Gorkiy, Kalinin, Pskov kabi viloyatlarda davlat mulkini talon-taroj qilishning yirik faktlari fosh etildi. Shundan so'ng SSSR Vazirlar Soveti prokuratura va ichki ishlar organlariga maxsus topshiriqlar berib, barcha respublikalarda, jumladan O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligidagi bu kabi holatlarni qat'iy tekshirishni buyurdi. O'zbekiston SSRda 1982–1983-yillarda o'tkazilgan tekshiruvlar davomida qator qoidabuzarliklar ochildi. Masalan, Farg'ona viloyati Kirov tumanidagi "Oktyabr 40 yilligi" nomli sovxozning g'isht zavodi boshlig'i N. Obidov ishlab chiqargan g'ishtlarni hech qanday rasmiy hujjatsiz atrofda tashkilotlarga sotib, tushgan pullarni o'zlashtirib yuborgani uchun sudga tortildi[5]. Bunday misollar ko'plab topildi va jinoiy ishlar qo'zg'atildi.

XULOSA

1960–1980-yillarda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligidagi boshqaruv amaliyotlari va byurokratik muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqoridan pastgacha haddan ziyod markazlashtirilgan tizim oxir-oqibat o'zining samarasiz va zararli ekanini namoyon etgan. Kolxoz va sovxozlar faoliyatini qog'ozbozlik va buyruqbozlik bilan boshqarish ishlab chiqarish jarayonlarining tabiiy rivojiga to'sqinlik qildi. Rejalarni quvib etish va oshirish illati esa keng ko'lamli soxta ko'rsatkichlar (qo'shib yozish) epidemiyasiga olib keldi. Bu jarayonda ko'plab rahbar kadrlar real vaziyatni yashirishga, hisobotni "bezash"ga o'rganib qoldi. Natijada qishloq xo'jaligidagi inqiroz belgilari yuqoriga etib bormay, yopiq tizim ichida puch yutuqlar ortiga berkitildi.

Byurokratik boshqaruvning bevosita oqibatlaridan biri jamiyatda korrupsiya va davlat mulkini o'marish holatlarining kuchayishidir. O'zbekiston SSR misolida bu holat ayniqsa keskin namoyon bo'ldi – yordamchi xo'jaliklar misolida butun mamlakat bo'ylab davlat resurslarini talon-taroj qilish sxemalari keng yoyildi, paxta sanoatidagi yirik poraxo'rlik esa Sovet tuzumining so'nggi yillarida eng shov-shuvli janjallardan biriga aylandi. Minglab mansabdorlar javobgarlikka tortilib, bu holatlar butun boshqaruv tizimini larzaga solgan holda jamoatchilik ishonchini chuqur sarosimaga tushirdi.

TARIX

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, Sovet davridagi bu saboqlar davlat boshqaruvida oshkoralik, nazorat va javobgarlikning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligidagi byurokratik xatolar va korrupsiya holatlarini ilmiy tahlil qilish bugungi kunda ham qimmatli. Zero ayni shunday tahlillar orqali boshqaruv tizimini takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va yuqoridan buyruqbozlikka tayanishdan voz kechish saboqlarini olish mumkin. O'zbekiston SSR tajribasi yaqqol ko'rsatadiki, qog'ozdagi rejaviy ko'rsatkichlar emas, balki real natijadorlik va joylardagi tashabbuskorlikka tayangan boshqaruvgina qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantira oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нечипас Ю. В. Эволюция аграрной политики СССР в 1945-1984 гг.: Дисс. докт.ист.наук. - М., 2005..
2. Романченко В.Я. О состоянии и некоторых проблемах изучения истории аграрной модернизации в России // Актуальные проблемы современного гуманитарного знания.
3. Межвузовский сборник научных трудов (к 100-летию СГАУ имени Н.И. Вавилова. – Саратов: «Саратовский источник». – 2012. С.352.
4. Ўз МА Р-90, рўйхат -10, йиғма жилд – 4453. 218 varaқ.
5. Давыдова Ю.А., Громенко В.В. Экономические реформы в период «застоя» // Теория и практика общественного развития. 2014. -№7, - С. 76. (76-80).
6. Wikipedia.